

Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qo'yilgan edi. (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Zebi kamoli hayron bo'lganidan aravakashning nomahramligini ham unutib, haligi tangriqosh nazari bilan unga qaradi. (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Biz shu kechaga mingboshi tog'aning qizi bilan kichik xotinini chaqirtiraylik. (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Mingboshi- ming kishidan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni.

Qumariqning paynovidagi dehqonlar mening ustimdan ariza berganga o'xshaydi. (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Qumariq- qum-bir-biri bilan aralashmaydigan ,yerning unumdor qatlami; ariq- kichik suv yo'li. Matnda joy nomi.

Xorib-charchab, zo'rg'a-zo'rg'a oyoq tashlab qo'shxonalariga qaytganlarida, yarim kechadan ancha o'tib qolgan edi. (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Qo'shxona-qo'sh- ikki, xona -tort tomoni devor bilan o'ralgan joy; matnda safarda qo'nish, istiqomat qilish uchun belgilangan joy.

Keng hovlida, daranglagan ayvonlar va so'lim uylarda, odamni chiroyli qilib ko'rsatadigan qalin toshoynaklarning qarshisida... (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Tshoyna- (tosh- qattiq tog' jismi, oyna- yassi shisha,ko'zgu)

Xontaxta ustida anvoyi noz-ne'mat, turli-tuman meva-cheva...turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og'izga solsa, eriydigan noklar...

(Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Xontaxta- o'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta yog'och stol.

Bu sho'rliklar yugurgani-yugurgan, qatnagani- qatnagan, karvonboshi- og'zining yeli bilan topadi...Shu ham insofmi? (Cho'lpon "Kecha va Kunduz")

Karvonboshi- (karvon-uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar to'dasi; bosh-tananing bo'yindan yuqori qismi.) savdo karvoni boshlig'i, karvonga boshchilik qiluvchi.

Bu kabi misollarni ingliz tilidagi badiiy matnlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, Teodor Drayzerning "Sister Carrie" (Baxtiqaro Kerri) romanida idiomatik qo'shma so'zlardan foydalanilgan.

He reached down in his hip pocket and took out a fat purse. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Hip pocket- shimning orqa cho'ntagi.

It was filled with slips of paper, some mileage books, a roll of greenbacks. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Mileage books- kuponlarni o'z ichiga olgan chipta.

"Chicago! Chicago!" called the brakeman, slamming open the door. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Brakeman- tormozchi.

He was a silent man, American born, of a Swede father, and now employed as a cleaner of refrigerator cars at the stock-yards. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Stock- yards- omborxonalar, hayvonlar saqlanadigan joy; matnda avtoturargoh ma'nosida qo'llangan.

What we know of foot rests, swivel- back chairs, dining- rooms for the girls, clean aprons and curling irons supplied free, and a decent cloak room, were unthought of. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Foot rests- foot- yoq, rest- dam olmoq; o'tirganda oyoqni qo'yib oladigan joy, podstavka.

Swivel- back chairs- swivel buramoq, aylantirmoq, back chair -suyanchig'i bor stul- suyanib, turgan joyida aylanadigan stul.

Cloak room- cloak- yengsiz kiyim (nimcha), room- xona; cloak room- garderob, kiyinish xonasi.

“What are you going to take?” he added, as the barkeeper, in snowy jacket and tie, leaned toward them from behind the bar. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Barkeeper- barda ichimliklar bilan xizmat ko'rsatuvchi shaxs.

“Her trunk will be here in a day or so,” he observed to the landlady, who was very pleased. (Sister Carrie by Theodore Dreiser)

Landlady-land- yer, lady- xonim; ijaraga yer beruvchi ayol.

O'zbek tili lug'at qatlamida qo'shma shakldagi yangi ravishlarning yuzaga kelishi kuzatilmaydi. Lekin qo'shma shakldagi sof nutqiy ot va sifatlar yaralyaptiki, bu holat ot va sifatning qo'shma shaklda ham yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, qo'shma shakldagi yangicha nutqiy yasama ot va nutqiy yasama sifatning yasaliş qolipini ko'pincha [ot+ot] tashkil etgan. Asarlarda muallif neologizmlari sifatida qo'llangan kiyikso'qmoq, chaqmoqtuyoq, jayronko'z (M.Yusuf), telfonxat (U.Azim), qunduzqosh (F.Afro'z), daryodil (M.Toir) kabi so'zlar qo'shma ot va sifatarga misol bo'la oladi. Ayrim misollarni kuzatamiz:

1. Armonqizning ko'zi battar suzuklashdi,  
She'rim o'qib kimning holi tuzuklashdi. (B.Fazliddin)
2. Ayozkotib eng dilbar she'rni  
Dog' yuqtirmay ko'chirar oqqa (B.Fazliddin )
3. Sen kelding eritib yillar muzini,  
Qarshimda bir olam turar bahorro'y. (U.Azim )
4. Ichan qal'a demak – Xorazm faxri,  
Bahornaqsh gumbazlar, minor sardoba. (O.Matjon )
5. Qor – billurtan farishta. (U.Azim)  
Odamtoshlar. (Z.Mirzayeva)
6. Yalpiz hidi tutgan dalalar  
Gapga chechan bog'chaxolalar. (M. Yusuf)
7. Buloqbola bo'ldim – tiniq nigohi,

Diydamdan o'tdilar turfa qadamlar. (B.Fazliddin )

8. Dilbuzar dog'larga keltirsa qiron

Mangulik qo'shig'in kuylagan qushlar. (B.Fazliddin)

9. Dilshishang sinmasin, dildosh, shishadosh

Men seni bilmayman, men o'zim yaxshi. (I.Mirzo)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yuldashev A.G. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv aspekti (ingliz va o'zbek tillari misolida). Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. – T., 2017.
2. Cho'lpon “Kecha va Kunduz”
3. Sister Carrie by Theodore Dreiser
4. Акобиров С.Ф. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қўшма сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1965. – № 6 . – 560 б.
5. Madaliyev B., Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar, T. 1966.

**TASVIRLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH JARAYONINI  
INTELLEKTUALLASHTIRISH ALGORITMLARINI YARATISHDA GINETIK  
ALGORITMNING AXAMIYATI**

**I.U.Xaydarov**

*Matematika-informatika fakulteti "Amaliy matematika va informatika" kafedrası  
dotsenti,*

**Q.O.Raximov**

*Farg`ona davlat universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrası mudiri,*

**B.S.Solijonov**

*Farg`ona davlat universiteti "Amaliy matematika (Axborot texnologiyalari)"  
yo`nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmlarini yaratishda ginetik algoritmning qay darajada axamiyati, shartlari, usullari va qo'llanilishi yoritilgan. Genetik algoritmlar stoxastik evristik optimallashtirish usullari, ularning asosiy g'oyasi turlarning evolyutsion rivojlanishi nazariyasi xaqida g'oyalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Genetik, yo'l belgisi, stoxastik, DNK, mutatsiya, model, xromosoma*

Zamonaviy avtomobil sanoatida avtomobil haydashni optimallashtirishga qaratilgan texnik tizimlar tobora ko'proq paydo bo'lmoqda, ular orasida yo'l belgilarini avtomatik aniqlash tizimlari ham mavjud. Bu haydovchining vazifasini osonlashtiradi, unga haydash jarayonida diqqatni yaxshiroq qaratishga imkon beradi va barcha yo'l harakati qatnashchilarining xavfsizligini oshiradi.

Belgilarni identifikatsiyalashning boshqa usullaridan farqli o'laroq (masalan, avtomobilning radio moduliga ushbu belgining harakat zonasiga kirganligi to'g'risida xabar berishga qodir radiometrik "mayoqlar"), to'g'ridan-to'g'ri tasvir belgilarini aniqlash ishonchliligi va mavjud yo'l belgilari infratuzilmasiga qo'llanilishi bo'yicha afzalliklarga ega.

Ob'ektni tanib olish masalasi zamonaviy dunyoning mutlaqo boshqa sohalarining rivojlanish jarayonida hal qilinishi mumkin. Ular, shuningdek, turli darajadagi murakkablik va aniqlikka ega bo'lishi mumkin.

Tasvirdagi ob'ektlarni tanib olish muammolarini hal qilish uchun turli xil algoritmlar qo'llaniladi, ular orasida: shablon bilan taqqoslash, lokal xususiyatlarning deskriptorlari, Viola-Jones algoritmi, genetic algoritm.

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmlarini yaratishda eng zamonaviy va maqbul yo'llardan bu neyron tarmoqlaridir.

Yuqoridagi algoritmlar natijalarni yaxshilash uchun asosan iterativ texnikadan foydalanadi. Bitta iteratsiyani amalga oshirayotganda, ular oldingi iteratsiyada olingan